

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI INGLIZ TILI O'QITISH
METODIKASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

KURS ISHI

Mavzu: Ingliz tili darslarida didaktik o'yinlardan
foydalanish

Bajardi: Umurova Madina

Ilmiy rahbar: Ashurov Sh.S



SAMARQAND 2013

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Asosiy qism.....	4
1. Didaktika haqida umumiy ma`lumot.	
2. O`rta maxsus ta`limda taxsil oluvchilar uchun didaktik o`yinlarning o`rni.	
3. Darslarni mustahkamlash uchun interfaol o`yinlar.	
Xulosa.....	18
Adabiyotlar ro`yxati.....	20

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallash intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Har qanday chet tilini o'rganishdan maqsad o'sha tilda bemalol muloqat qila olishdir. Chet tillarni o'rgatish va o'rganish uzoq va mukammal jarayon. U kishidan muntazam mehnatni va o'z ustida ishlashni talab qiladi. O'gzaki nutq malakalarini o'stirish uchun chet tillarni o'qitish jarayonida har xil interfaol o'yinlardan qo'llash chet tilini o'rganishni zerikarli emas, aksincha qiziqarli va sevimli mashg'ulotga aylantirishi aniq. Interfaol o'yinlar tilni o'rganuvchilar o'zlarini ancha erkin tutishlarini hatto uyatchan o'quvchilarni ham ushbu o'yinlarda qatnashishga undaydi interfaol o'yinlarni ayniqsa grammatika va so'z boyligini ortirish uchun qo'llash samaralidir. Ammo bu o'yinlarni qo'llashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga o'yindan ko'zlangan maqsadni o'yin qoidalarini aniq tushuntirishi va o'tilayotgan mavzu bilan chambarchas bog'lashi kerak. Ushbu usulubiy tavsiyalar to'plamiga kirgan interfaol o'yinlar maktabgacha ta'lim yoki maktab o'quvchilariga o'yinlar orqali dars o'tish og'zaki nutq orqali foydali manba bo'lib xizmat qiladi, o'yinlarni qo'llash bo'yicha batafsil ko'rsatmalar berilgan. Interfaol o'yinlar asosan CEFR asosida o'qitish ya'ni o'qitishning Yevropa standartlarning darajalari A1-A2 talabiga mo'ljallangan. Maktabgacha ta'lim muassalari uchun ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki maktabgacha ta'lim muassasida

tarbiyalanuvchilari o`yinqaroq bo`lishadi. Va yana bir usul bu rasmlar orqali ham ularni tasavur etish orqali ham o`rgatish mumkin.

ASOSIY QISM

Insonning faoliyatida o`qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo`lgan. Ta`lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo`lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo`lganda ham shunday bo`lgan; keyinchalik ham, ta`lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo`lganida ham shunday bo`lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta`limni nazariy taxlil qilish va o`rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o`z nazariyasiga ega bo`lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohada muxim o`zgarishlar olib keldi: aynan o`sha paytda ta`lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika (ta`lim nazariyasi: yunoncha «didaktikos» “o`rgatuvchi, «didasko» esa – “o`rganuvchi ma`nosini bildiradi) ta`limning nazariy jihatlari (ta`lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o`qituvchi va o`quvchi faoliyati mazmuni, ta`lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta`lim jarayonini takomillashtirish yo`llari va hokazo muammolar)ni o`rganuvchi fan.

Bu so`z 1613 yili Germaniyada nemis pedagogi Volfgang Ratke (1571-1635 yillar) tomonidan kiritildi.

Bu tushunchani shunga o`xshash usulda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) “Buyuk didaktika” nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy “didaktika” bu faqat ta`limgina emas, balki tarbiyalash ham, deb ta`kidlaydi. Mazkur asarda olim ta`lim nazariyasining muhim masalalari: ta`lim mazmuni, ta`limning ko`rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so`z yuritadi.

Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi. Pedagogika fani ta`lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o`rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta`lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib ko`rsatadilar.

Hozirgi davrda didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi.

Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo'yicha ta'lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud.

Ularning mazmuni ta'limning ma'lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o'rganish va ta'lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o'qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur.

Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan. Qarashlarning turlicha bo'lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq.

Ko'pchilik olimlar ta'lim ob'yekt deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar.

Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi - o'quvchi, o'quvchi - o'quv materiali, o'quvchi - boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiy hisoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o'quvchining o'quv materialiga bo'lgan munosabati, ya'ni, bilimlarni o'rganish munosabatini asosiy deb e'tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko'p.

Darhaqiqat, o'qish, o'rganishi ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta'limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat - ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rganish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari o'quvchining bilimni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish obyekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyekti sifatida qaraydi.

Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish(o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o'zida me'yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlarini o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limini jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.

Ta'lim jarayonining mohiyati va vazifasi. Insonni tarbiyalashda, inson shaxsini kamol toptirish va shakllantirishda o'qitish va ilm berish katta rol o'ynaydi. Ta'lim berish kishilik jamiyatida uning ilk rivojlanish bosqichlarida paydo bo'ldi. Bolalar katta yoshdagilarga taqlid qilib, ularning ish-harakatini, mehnat qurollarini yasash va ishlatish jarayonlarini takrorlashlar, ularning xulq-atvorlaridan andoza olishar, so'zlashuv terminlarini va ularning ma'nosini eslab qolishardi. Katta yoshdagi odamlarga taqlid qilishib, o'sa borgan sari bolalar tabiat qonunlarini bilib oladi, o'z bilimlarini chuqurlashtiradi va yanada oshiradi.

Bilimlar-odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashgan tajribasidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar insoniyat ijtimoiy-tarixiy tajribasining muayyan jihatlari-ideologiyasini, siyosatini, fanni, axloqni, mehnatni, adabiyot va san'atni, umumiy va jismoniy madaniyatni o'zlashtiradi. Hozirgi paytda ta'lim shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun negiz yaratadi.

Ta'lim-dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayondir. Unda hamisha bir tomon va uning qarama-qarshisi bo'lgan (ikkinchi tomon) o'qish va o'qitish, eskilik va yangilik, yakka va umumiy narsalar mavjud.

Ta'lim jarayoni ikki tomonlama bo'lib, unda ikki shaxs-o'qituvchi va o'quvchi bo'ladi. Ular muayyan jarayongagina xos bo'lgan ma'lum munosabatda bo'ladilar. O'qituvchi bilan o'quvchi bir-biriga mutlaqo zid rollarni-o'qitish va o'qish rollarini bajaradilar. Ta'lim berish o'quvchilarga bilimlar berish, ularda ko'nikmalar va malakalar hosil qilish, yangi haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan ijodiy, mantiqiy tafakkur tarbiyalashdir.

Alifbo o'yini

Bu o'yin ingliz tilini endi o'rganayotganlar uchun hisoblanib 7-8 yoshli bolalar uchun. O'yida oldidan tayorlangan harflar yozilgan ko'rgazmali qurol bo'ladi. Bu o'yin orqali bolalarni alifbo harflarini qay darajada yod olganliklari va ularning birinchi harfi bilan qanday so'z boshlanishini esga oladilar.

SAVOLLAR	JAVOBLAR
Find letter a	
Find letter b	a is for apple
Find letter c	b is for banana
Find letter d	c is for cat
Find letter e	d is for dog
Find letter f	e is for elephant
Find letter g	f is for fish
Find letter h	g is for gorilla
Find letter i	h is for house
Find letter j	i is for ice cream

Find letter k	j is for jet
Find letter l	k is for koala
Find letter m	l is for lion
Find letter n	m is for mouse
Find letter o	n is for nest
Find letter p	o is for octopus
Find letter q	p is for pig
Find letter r	q is for queen
Find letter s	r is for rabbit
Find letter t	s is for snake
Find letter u	t is for teddy
Find letter v	u is for umbrella
Find letter w	v is for vegetables
Find letter x	w is for whale
Find letter y	x is for xylophone
Find letter z	y is for yo-yo
	z is for zebra

The alphabet game.

Maqsadi: alifbo harflarini takrorlash.

Tilni o`zgartirish darajasi: boshlang`ich va o`rta.

O`yin uchun kerakli vositalar: alohida kartonlardanga bosma harflarda yozilgan alifboning 26 ta harfi.

O`yinning olib borilishi: alifbo harflarni aralash holda o`quvchilarga ko`rsatish. "q, x va z" ni olib tashlash maqsadga muvofiq bo`ladi o`quvchilarga tanlangan maxsus kategoriyalarga diqqatlarini qaratish kerakligini aytamiz. gullar, supermarket mahsulotlari, mebel jihozlari, sabzavotlar, kiyimlar va boshqalar. Ularning tanlovi ular o`rganayotgan kategoriyalar va o`zlarining lug`at boyliklarini mezoniga bog`liq. O`yin o`quvchining harfni ko`rsatishi bilan boshlanadi. Tanlangan kategoriya bo`yicha birinchi bo`lib aytagan o`quvchi harf kartochkasini oladi. O`yin so`ngida eng ko`p kartochka to`plagan o`quvchi g`olib sanaladi. Agar bir necha o`quvchi bir xil vaqtda bir so`zni aytsa kartochka keyinroq yana qo`llanilishi uchun joyiga qo`yiladi.

Bu o`yinni guruhga-guruh tarzda o`ynash ham mumkin, eng ko`p kartochka olgan guruh o`yin yakunida g`olib deb e`lon qilinadi.



Bananas

Maqsad va sharti: **Wh** so`roq(maxsus so`roq)formasini amaliyotda tadbqiq etish.

“it” bo`lishi uchun bir o`yinchi tanlanadi yoki xoxishi bilan chiqadi. Qolgan o`yinchi talabalar esa Wh-question’ formasida “it”ning shaxsiyatiga tegilshi har xil savol berishlari kerak. Javob beruvchi hamma savollarga “Bananas” deb javob berishi lozim. O`yinning maqsadi ”it” kuldirish kimning savoli javob beruvchining kulishiga sabab bo`lgan, o`sha talaba “it” bo`ladi va shu tariqa o`yin davom etadi.

Savollar shunday bo`lishi kerakki, ularning javobi kulgili bo`lishi kerak. Bu o`yida “yes” yoki “no” questions ni berish taqiqlanadi. Faqat “Wh-question” maxsus so`roq gap bo`lishi shart. Ushbu o`yin mashhur va qiziqarli bo`lganligi sababli, talabalar qayta-qayta o`ynashni istashlari mumkin. Shunday ekan, “Bananas”ning o`rniga boshqa so`zlarni ham ishlatga bo`ladi. Bunda o`tilgan narsa yoki hayvonlar nomi bilan ham o`zgartirib ham o`yin qiziqarli bo`ladi.


Zanjir o`yini.

Maqsadi: Xotirani tekshirish va oshirish.

O`yinda guruh bo`lib o`ynaladi va boshlanishida bitta mavzu doirasdan cheklangan bo`lishi kerak. Misol uchun “Animals” bunda birinchi o`quvchi bir so`zni aytadi va

misol uchun 'cow' deydi, boshqa o'quvchi birinchi o'quvchining so'zini takrorlab "cow" va o'zining yangi so'zini ya'ni 'pig' so'zini aytish bilan davom etadi. o'yinda kimning yodidan ko'tarilib to'xtab qolsa shu ishtirokchi o'yinni tark etadi. guruhda 10 yoki undan ortiq kishilar bo'lsa so'zlar miqdori ko'payadi va qiziqarli bo'ladi. O'yin orqali xotirani tekshirish, qay darajada ekanligini bilib olib uni o'stirish mumkin.

Misol uchun:



Guess my job.

Maqsadi: turli kasblarni va ularga tegishli so'zlarni mustahkamlash.

Kerakli vositalar: kasblar nomi yozilgan kartochkalar to'plami.

Har xil kasblar nomi yozilgan kartochkalar konvertga solinadi. Guruhdan ko'ngilli o'quvchi chaqiriladi va bitta kartochka tanlanadi. Galma-gal o'tirgan o'quvchilar kartochkadagi yashiringan kasb qaysi ekanligini toppish uchun faqatgina umumiy (Yes/No questions) savollarni so'raydilar. Kartochkani ushlab turgan o'quvchi faqat "Yes" yoki "No" deb javob berishi mumkin. Kasb nomini birinchi bo'lib topgan o'quvchi o'rtada turgan o'quvchi o'rniga chiqadi va keying kartochkani oladi. O'yin shu tariqa davom etadi.

Actor	lawyer	architect	model
Fortune-teller	doctor	sculptor	pilot
Nurse	driver	Cook	gardener
Teacher	plumber	carpenter	secretary
Shop assistant	vet	policeman	astronomer
Barber	designer	accountant	singer

So`z o`yini

Maqsadi so`z boyligini oshirish. Bu o`yin 10-15 yoshli bolalar uchun mo`ljallangan. O`yinda o`quvchilar yoki o`qtuvchi tomonidan harflar tanlanadi, va shu harflar qatnashgan gaplar tuzadilar va ularning tarjimasi, sinonimi yoki antonimini berish o`rqli so`zlarni to`g`ri, aniq yetkazib beramiz.

Misol uchun “U D R M S E R” pastki qisimda esa shu harflar yordamida yasalgan so`zlarni ko`rishimiz mumkin.

Sue преследоватьсудом; подаватьвсуд, возбуждать иск, предъявлять иск

Err заблуждаться, ошибаться; допускать ошибку Syn: be mistaken, blunder, грешить, совершать грех Syn: sin; to err is human — человеку свойственно ошибаться

Due 1. должное; то, что причитается; 2. сборы, налоги, пошлины
3. должный, надлежащий, соответствующий

Rue жалость, сострадание; compassion ,sympathy; раскаяние, сожаление

Use употребление, применение, использование (*noun&verb*)

Sum сумма, количество; величина, итог, совокупность; amount, quantity, total;
sum up обобщать; подводить итог summarize , abstract , recapitulate

Emu 1. *сокр.* electromagnetic unit электромагнитная единица 2. *зоол.* эму

Red красный, алый; багряный; **see red** – рассердиться, прийти в ярость
in the red – влезший в долги; **go into red** – приносить дефицит, становиться
убыточным

Rum 1. спиртной напиток rumchaser — преследователь перевозчиков
запрещенных спиртных напитков

2. странный, чудной, подозрительный he feels rum — ему не по себе - rum
fellow - rum start strange, odd

Mud грязь, слякоть; ил, тина; slush, mire, sludge;

Sued to be sued — отвечать(всуде);

Errs err

Drum барабан; **beat the drum** 1. шуметь, поднять шумиху; 2. хвастать,
рекламировать

Reds You got any reds I can borrow? — У тебя не найдется для меня таблеток?

Rues rue

Rude 1. грубый, невежливый, невежественный, невоспитанный; violent , harsh ,
rugged

Used 1) подержанный, старый Syn: second-hand , worn 2) отработавший,
отработанный

Muse погружаться в размышления; задумываться (о чем-л. - on, upon); think,
wonder, marvel

размышление, медитация Syn: reflection, thought

Sure 1) уверенный; убедившийся; 3) несомненный; Syn: certain , definite ,
doubtless , positive

2) конечно, непременно, безусловно (в ответе на вопрос)

Emusemu

Dues 1.due. 2. пошлины

Ruse прием, уловка, ухищрение, хитрость Syn: trick

Rued rue

Rumsrum

User 1) потребитель, клиент Syn: consumer, buyer 4) *amer.* наркоман

Surer sure

Drums drum

Serum сыворотка

Demur 1) возражение Syn: protest, objection, rejoinder;

2) колебаться, нерешаться; сомневаться, раздумывать Syn: doubt, have one's doubts, delay hesitate

Ruder rude

Mused замечтавшийся, задумчивый, погруженный в размышления

Demurs demur

Krossvord.


An`anaviyo`yinlardan biribukrossvordo`yinibo`lib,

bundabelgilangankatakchalar sonivasavoligamosjavobkatakchargajoylashtiriladi.

Joylashtirish davomiga boshqa so`zlarning kalit harflari ham ochiladi, shu orqali krossvord savollariga javob topiladi. Krossvord savollari turli sohada bo`lish mumkin.

Bir mavzu doirasida ham bo`lishi mumkin ammo uni joylashtirish va boshqa so`zning kalit harfini to`g`ri kelishini ham taminlashimiz lozim bo`ladi.

Crossword:



DOWN

ACROSS

1. v. To injure or damage
4. adj. Very large
8. n. Something abnormal or unusual.
- 10 (noun/verb) a reduction in size, amount or length; a style of clothes or hair; a remark that hurts a person's feelings; to remove from something larger, to stay away from or be absent from class
- 12 (noun) a place where something was or will be
- 13 (verb) to defeat; to exhaust; to cover completely
- 14 (verb) to give or to send out

- 2 (adj.) profitable; helpful
- 3 (adj.) small, insufficient; slender
- 5 (adj.) not used to something
- 6 (noun) a manner of writing, speaking; a quality of being superior; a general appearance
- 7 (noun/verb) a mark that doesn't wash out; to permanently change the color of something
- 9 (verb) made illegal
- 11 (noun) a fault, an imperfection
- 12 (verb) to look for
- 14 (verb/noun) to make a bubbling hissing sound, as when gas escapes from a liquid; a bubbling sound

Rasm o`yini.

Rasmda farqlarni toping.

Bu o`yin dars doirasida xisoblanadi, chunki bu o`yining maqsadi bolalarni ziyrakligini anglash va e`tiborini jamlashdir. O`yin sharti: 'A' va 'B' rasmlar orasidan farqlarni toping.





Bu interfaol o'yin 10-11 yoshdagi o'quvchilar uchun tuzilgan bo'lib, **“O'yla, izla, top”** deb nomlanadi. O'yin sharti:

Jadvaldagi harflar orasidan 13 ta hayvon nomi vaularning makoni nomini toppish kerak bo'ladi. Lekin bunda faqat o'nga va yuqoridan pastga qarab harflar harakatidan foydalanish shart. Ya'ni:



Ushbu o'yin o'quvchilarni topqirligini, zehnini oshirishga yordam beradi. Lug'at boyligini oshirishga va mustahkamlashga yordam beradi. Dars davomida o'quvchilarning qiziqishi ortadi.

B	A	G	A	M	A	K	E	V	K	L	V	D	H	I
E	D	K	B	E	A	R	Q	F	H	E	A	E	D	D

M	O	S	Q	U	I	T	O	I	A	O	R	E	E	U
R	C	H	E	E	T	A	H	S	K	P	A	R	S	C
T	O	R	T	O	I	S	E	H	E	A	N	W	E	K
U	T	U	G	A	I	M	O	B	I	R	D	A	R	S
V	M	O	U	N	T	A	I	N	S	D	H	Y	T	P

“TENNIS” o`yini.

Maqsadi: O`quvchilarning tezligini oshirish.

O`yin xuddi zanjircha o`yiniga o`xshash bo`lib u faqat tanlangan mavzu doirasida bo`ladi va so`z yakuniga qarab tugallangan harfga yangi so`z aytishi lozim bo`ladi misol uchun mavzu :vegetables” bo`lsa shu mavzudan chetlashmagan holda bo`ladi. Birinchi ishtirokch ”potato” desa ikkinch ishtirokchi esa oxirgi harfi ‘o`ga topishi kerak bunga “onion” deb javob beradi va shu tariqa o`yin davom etadi. O`yin davomida to`xtab qolgan o`quvchi 5daqqa ichida javob qaytarmasa o`yindan chetlashtiriladi va qolgan o`quvchilar bilan o`yin davom etadi.o`yinni guruh bo`lib o`ynash o`quvchilar uchun qiziqarli bo`ladi yani 5 kishidan ortiq guruh bo`lib o`ynash.

Bu o`yinda mavzuni o`zgartirish orqali ham o`ynash mumkin

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish joizki bu o'yinlarni bolalarning saviyasi yoki yoshiga qarab osonlashtirish yoki qiyinlashtirishimiz ham mumkin. Ushbu interfaol o'yinlarning maqsadi turlich bo`lib bu o'yinlar orqali diqqatni jamlash, so`z boyligini osirish, tezkorlik,aqililik,ziyrak asosiysi esa darsni qiziqarli tarzda o`zlashtib,yodda saqlab qolishimiz mumkin.

Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida .O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi.Shu bilan birga, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. Ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida:respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi

sinfidan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi;

Ushbu qarorning tasdiqlanishi bu biz yoshlar uchun ochib berilayotgan katta yo'l hisoblanadi. Kelajak avlod uchun esa juda kattadan katta imkoniyatlar ochib berilishidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq,1998-B8-9
2. Karimov.I.A 2012 yil 10-dekabr "Chet tiliarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Mahmudova "Pedagogika" o'quv darsligi.
4. Dehkanova Dilnoza "Ingliz tili darslarida interfaol o'yinlar" O'rta maxsus ta'lim bosqichi uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand SamDCHTI,2013 yil
5. [http:// www.englishclub.com/esl-activities](http://www.englishclub.com/esl-activities).
6. [http:// www.eslgamesworld.com/ClassroomGames.html](http://www.eslgamesworld.com/ClassroomGames.html)